



- Mavzu: Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” tragediya(fojia)si

## Adabiyot

**Abdukadirova M.M.**



## Reja:

1. Fitrat dramaturgiyasi haqida.
2. “Abulfayzxon” fojiasining yaratilish sabablari va tarixiy asoslari.
3. Tragediyaning zamonaviy mohiyati.



# Fitratning adabiy-badiiy merosi



- Fitrat ijodiy merosining katta qismini dramaturgiya tashkil qiladi. Shuning uchun ham adabiyotshunoslar haqli ravishda Fitratni o`zbek dramaturgiyasining sardori deyishadi. Uning dramalari bu janrdagi dastlabki asarlar bo`lishiga qaramasdan adabiyotimizni o`lmas mavzular bilan boyitdi. Bizgacha to`liq etib kelmagan “Temur sag`anasi” (1917)da romantik uslub orqali jahongirning mardona vatanparvarligini tasvirlagan bo`lsa, 5-pardalik “Chin sevish”da muallif sovet voqeligiga bo`lgan norozilikni, mustamlakachi Evropadan yaxshilik kutish, unga ishonish mumkin emasligini Hindiston hayoti misolida ko`rsatishga muvaffaq bo`ldi. “Hind istilochilari” (1920) dramasida milliy ozodlik kurashini keng ko`lamda aks ettirdi



# Fitrat dramaturgiyasi



Fitrat 1916-1934 yillarda dramaturgiya sohasida barakali ijod qildi. Fitratning 13 ta drama yozgani bizga ma'lum. Shundan 7 tasi to‘la holda saqlangan. 1920 yilda yaratilgan “Chin sevish”, “Hind ixtitolchilari” dramalari romantik ruh bilan sug’orilgan. Ularda muallif voqealarni Hindistonga ko‘chirish orqali millatparvarlik g’oyalarini tasdiqlashga intilgan edi. Faqt bu dramalarning mazkur fazilati keyinchalik butunlay teskari talqin etilib, Fitratni “millatchi”, “xalq dushmani” sifatida ayblasht uchun dastak qilingan edi.



# FITRAT DRAMATURGIYASI



1924 yilda yaratilgan “Abulfayzxon” tragediyasini Fitrat dramaturgiyasining cho‘qqisi deyish mumkin, chunki unda shafqatsiz tarix sabog’i yuksak badiiy haqiqat darajasiga ko‘tarilgan va insoniyat cheksiz qon to‘kiShlar oqibatida dahShatli fojialarga olib keliShidan ogoh etilgan edi. o‘zining yuksak fazilatlariga ko‘ra, bu drama Fitrat ijodiy yo‘lining yetuklik bosqichi boshlanganligidan guvohlik bergen edi. 1926 yilda yozilgan “Arslon” va 1930 yilda yaratilgan “Ro‘zalar” dramalari esa zamonaviy ruh bilan sug’orilgan edi. “Arslon”da “Boy ila xizmatchi” dramasining ruhi yaqqol sezilib turadi.





Qahramonlarni jonli, hayotiy tarixiy haqiqatga mos tarzda realistik aks ettirish, ayniqsa. «Abulfayzxon» tragediyasida yorqin namoyon bo‘ldi. «Abulfayzxon» nainki, Fitrat ijodi, balki, umuman, o‘zbek dramaturgiyasidagi shoh asarlardan biridir.

Tragediya badiiy jihatdan teran. U obrazlar tizimidagi puxtalik, kompozitsion qurilishdagi uyg‘unlik, badiiy tildagi jozibasi bilan ajralib turadi. Qahramon fikri va harakatidagi emotsiyallik, g‘oyaning asardagi obrazlilik zamiridan sizib chiqishi, shakl va mazmundagi muxtasar tutum xarakterlar pafosi bilan to‘yingan holda ajib bir badiiy yaxlitlik kasb etadi. Asarning yetakchi g‘oyaviy-badiiy maqsadi zo‘ravonlik, o‘zgalarni qullarcha itoatda tutish, taxt va mansab dunyosi barcha razilliklar manbaidir degan muammoni yoritishga qaratilgan.



Dramada Buxorodagi Ashtarxoniyalar sulolasining oxirgi namoyandası Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang‘itlar sulolasining hokimiyatga kelishi aks ettirildi.

Abulfayzxon taxtni egallagach, eng yaqin kishilaridan ham shubhalana boshladı, ko‘pini hibsga olib, birin-ketin qatl etdi. o‘tmishdagi bu tarixiy haqiqatni ko‘rsatish orqali muallif zamonaviy dardlarni ko‘farib chiqdi. Uning asar asosiga joylagan asl niyati yashirin zulm va zo‘ravonlik asosiga qurilgan, bu yoida istibdodning hech qanday manfurligidan qaytmaydigan tuzumni fosh etish edi. Bir jihatdan, tarixning qora va og‘ir bir davri yorqin ko‘rsatib berildi.



Ikkinchi bir jihatdan, taxtning yangi egalari bilan birga, o‘z yurtiga sotqinlik qilgan, yangi a‘yonlar bilan og‘iz-burun o‘pishgan yerli amaldorlar ko‘magida boshqarilayotgan yangi tuzum va yangi jamiyatning kirdikorlari ham ochib tashlandi. Xayol tilidan asar nihoyasida taxtga nisbatan aytilgan: «Eng qop-qora saodat-sensan» deyilgan fikr Rahimbiy timsolidagi xonga nisbatangina emas, ayni vaqtda, asar yozilgan davr jamiyatining arkoni davlatiga ham ishoradir. Xususan, Xayol tilidagi: „Tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha inson ko‘masini’ chuqurdan-chuqurga yumalatmog‘ingning zamoni hanuzg‘acha bitmadimi?» deyilgan flkrda Fitrat o‘z zamonasiga nisbatan o‘zining qarashlarini ochiq-oydin aytib ham yuboradi. Bundan tashqari, bu fikr hatto, bizning XXI asr uchun ham o‘ziga yarasha qimmatli emasmi?



Tragediyaning obrazlar tizimidagi badiiy mantiq va o‘zaro bog‘lanish kuchli. Abulfayzxon – asarning bosh qahramoni. Uning kuchi aqlida emas, podsholigida, xolos. Podsholigi xayolidan ko‘tarilganda o‘ziga ishonmay qo‘yish, shundan. Abulfayzxon, aslida, nomard, qo‘r quoq, vahimachi odam. o‘ziga ishonmagani bois hammadan hayiqaveradi.

Uning atrofidagilar ham o‘ziga yarasha. Yanada to‘g‘rirog‘i, ishni va gapni unga yoqadigan yo‘sinda tutadiganlar. Katta amaldor Ulfatning «podshohlik qon bilan sug‘oriladigan og‘ochdir» deyishi, o‘zininggina gapi emas. Bu xonga juda ma’qul gapdir. Qozikalon Nizom, to‘qsabo Davlat, xonning otalig‘i Hakimbiylar ham shu yo‘nalishdagi kishilardir.



Bu qahramonlarning mohiyati bir yo‘nalishda. Lekin, muallif ularni har birini, xuddi hayotdagidek, o‘ziga xos bo‘lgan fe'l-atvor orqali ko‘rsatadi.

Ulfat va Davlat shu qadar ustamonki, aksar o‘rinlarda xon ularning yetagidan chiqolmay qoladi. Otaliq Hakimboy esa. ayvor. pixini yorganlardan. Nodirshoh bo‘lsa, uzoqni ko‘zlab ish tutadigan tadbirkor. Dushmanini tashqaridan emas, avval ichdan, qatoridagilarni qo‘lga olib, munofiq va xiyonatchilardan foydalanib, mahv etish yolini tutadiganlar xilidan.



Tragediyaning bosh qahramoni – Buxoro xoni Abulfayzxon ham tarixiy shaxsdir.

Asarning so‘nggi – beshinchi pardasi yakunida Siyovush timsolidagi Xayol obraziga duch kelamiz. Muallif bu ramziy obrazni asarga zo‘ravonlik va shafqatsizlikdan iborat g‘ayriinsoniylikning alal-oqibati fojiadir, degan falsafiy ma'noga urg‘u berish uchun kiritadi.

Buyuk ingliz dramaturgi Vilyam Shekspir tajribalarining ta'siri sifatida o‘zbek dramaturgiyasida Fitrat asaridan boshlangan ruh timsolidagi obraz yaratish Shayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek», Abdulla Oripovning «Sohibqiron» kabi asarlarida davom ettirildi.



Avvalambor, Abulfayzxonning o‘zi Buxoro taxtini razil yo‘llar bilan egallagan. Maqsadiga erishish uchun akasi Ubaydullaxonning joniga qasd qilgan. «A1 qasos-ul minal haq» deganlaridek, o‘zi ham saroy fisq-u fijurlarining qurboni bo‘ladi: raqiblari tomonidan xoinlarcha o‘ldiriladi.

Dramaturg saltanat tanazzuli sababini Abulfayzxon tabiatini tahlil etish orqali ko‘rsatadi. Xon butun mamlakatni, barcha amaldorlarni qo‘rquv, titroq, dahshat ostida tutib turdi. Chaqim-chilik, tuhmat, fisq-u fujur, odamlarni gij-gijlashni yurtni bosh-qarish tuzumida yetakchi qoidalar deb bildi. Mamlakatda o‘zaro ishonchsizlik, hadik avjiga chiqdi. Natijada, johillik zamiriga; qurilgan, zo‘ravonlik siyosatiga yukingan saltanat uning egasi' yanglig‘ inqirozga yuz tutdi



«Abulfayzxon» XVIII asr Buxoro hayotidan olib yozilgan, tarixiy haqiqat asosiga qurilgan birinchi tarixiy tragediyadir. Unda ilk bor o‘zbek dramatuigiyasida shekspirona teran tragik obrazlar yaratildi. U shu janrda jahon miqyosida tan olingan shoh asarlar qatoridan munosib o‘rin ola biladi.

Uning ahamiyati o‘zbek xalqi tarixidagi muhim hodisa va tarixiy shaxsiar qismati haqqoniy aks ettirilishidagina emas. Zo‘ravonlik va shafqatsizlik mohiyati, zulm va istibdod asosiga qurilgan hokimiyatning barbod bo‘lishi, ezgulikning zavoli, uvoli va kamolidagi mangu muammolarning go‘zal badiiy talqinida namoyon bo‘luvchi fazilatlar bu asarni zamon va makonga bo‘ysunmas ravishda e’tiborli va qimmatli qiladi. Yuksak mahorat bilan yozilgan drama muallifning san’atkor, millatparvar, vatanparvar sifatidagi siymosini uyg‘unlashtiradi.



# Abulfayzxon dramasidagi qahramonlar



- **Abulfayzxon** - asarning bosh qahramoni. Uning kuchi aqlida emas podsholigida xolos. Podsholigi xayolidan ko‘tarilganda o‘ziga ishonmay qo‘yish, shundan. Abulfayzxon aslida nomard, qo‘rroq, vahimachi odam.
- **Ulfat va Davlat** – ishni gapni xonga yoqadigan yo‘sinda tutadiganlardan. Ular shu qadar ustamonki, aksar o‘rinlarda xon ularning aytganidan chiqolmay qoladi.
- **Otaliq Hakimbiy** – esa ayyor, pixini yorganlardan.
- **Nodirshox** – uzoqni ko‘zlab ish yuritadigan tadbirkor. Dushmanni tashqaridan emas, avval ichdan, qatoridagilarni qo‘lga olib munofiq xiyonatchilardan foydalanib mahv etish yo‘lini tutadiganlardan.
- **Otaliq Farhod** – mard, to‘g‘ri so‘z, e’tiqoddan qaytmaydigan kishi. U og‘ir vaziyatlarda nainki g‘ururini saqlab qoladi balki kerak bo‘lsa xonning ko‘ziga tik boqib haqiqatni ayta oladi



# Dramaturgiyadan namunalar




“Abulfayzxon” (1924) Fitrat adabiy-badiiy ijodining cho‘qqisi hisoblanadi. Dramaga tarixiy shaxs – Ashtarxoniyalar sulolasining oxirgi (XVI-XVII) xoni Abulfayzxonning xonlik davri bilan bog‘liq voqealar tizimi asos qilib olingan. Pyesaning g‘oyaviy yo‘nalishi feodal tuzum sharoitidagi o‘zaro qirg‘inlarni qoralash, xonlik tuzumining vahshiyona mohiyatini fosh etishdan iboratdir. Dramatik konflikt xon saroyidagi beklar, ulamolar, amaldorlar o‘rtasidagi tortishuv, ayovsiz kurash asosida rivojlanib boradi

“Arslon” (1926) dramasi mutaxassislarning aytishicha, Fitrat dramaturgiyasidagi badiiy jihatdan eng sara, eng barkamol va ta’sirchan namunadir. XX asr boshlaridagi o‘zbek qishloqlaridagi mehnatkash aholiga xos tipik hodisa – yerga, dehqonchilikka turmush kechirishning birdan-bir manbai deb qarash “Arslon”dagi asosiy qahramonlarni faoliyatga, kurashga undovchi hayotiy psixologik omil tarzida sizib ot‘adi.



«Abulfayzxon» tragediyasi nainki dramaturgiyamiz, balki umuman XX asr o‘zbek adabivotining «o‘tkan kunlar», «Kecha va kunduz», «Navoiy» singari mangu zavol bilmas namunalarini qatoridan joy oldi. Fitrat asarlari o‘zidan keyingi adiblar uchun mahorat maktabi bo‘lib qoldi. Bu rang-barang merosda Fitratning adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san’atshunoslik va siyosatshunoslikka bag‘ishlangan tadqiqot va maqolalari salmoqli o‘rin tutadi.





Uyga vazifa  
“Abulfayzxon”fojisiasini  
o‘qish.Timsollarga tavsif berish.